



PECULIARITIES OF FORECLOSURE ON PERSONAL PROPERTY OF INDIVIDUAL DEBTORS

Shokhrukh Uzakov

Student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: shoxruxuzakov06@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: collection, property, debtor, arrest, assessment, sale, creditor, movable property, security.

Received: 21.03.25

Accepted: 23.03.25

Published: 25.03.25

Abstract: In the article, the author highlights the existing problems in the implementation of enforcement proceedings in relation to the personal property of individual debtors and ways to eliminate them.

UNDIRUVNI QARZDOR JISMONIY SHAXSLARNING SHAXSIY MOL-MULKLARIGA QARATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shoxrux Uzakov

tinglovchi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shoxruxuzakov06@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: undiruv, mol-mulk, qarzdor, xatlash, baholash, sotuv, undiruvchi, shaxsiy mulk, qaratish, ta'minlash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif ijro ishini amalga oshirishda qarzdor jismoniy shaxslarning shaxsiy mol-mulklariga undiruvni qaratirishdagi mavjud muammolar va ularning bartaraf etish masalasiga oydinlik kiritgan.

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЩЕНИЯ ВЗЫСКАНИЯ НА ЛИЧНОЕ ИМУЩЕСТВО ДОЛЖНИКОВ-ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Шохрух Узаков

Студент

Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: shoxruxuzakov06@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	взыскание, имущество, должник, арест, оценка, продажа, взыскатель, движимое имущество, обеспечение.	Аннотация:	В статье автор освещает существующие проблемы при осуществлении исполнительного производства в отношении личного имущества должников-физических лиц и пути их устранения.
------------------------	---	-------------------	---

Shaxsiy mol-mulkarga qaratish jarayoni qarzdorning majburiyatlarini bajarishini ta'minlash va undiruvchining huquqlarini ximoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Har qanday iqtisodiy munosabatlar tizimida qarzdorlik masalalari, ayniqsa qarzdorning mol-mulkini undirish jarayonlari, yangi zamonaviy iqtisodiy-huquqiy muhitda dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Undiruvning qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratilishi nafaqat qarzlarni to'lash mexanizmlarini samarali tashkil etishda, balki huquqiy barqarorlik va ijtimoiy adolat prinsiplarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Undiruvni qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratish institutining asosiy huquqiy asoslaridan biri – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyaning 41-moddasiga ko'ra, "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" va 65-moddasiga ko'ra "Xususiy mulk daxlsizdir".

Biroq, fuqarolik huquqiy munosabatlarida majburiyatlarni bajarmaslik huquq buzilishi hisoblanadi va bunday holatda mulk huquqiga nisbatan cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

Konstitutsiyaning 55-moddasida, "har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqini kafolatlaydi." Majburiy ijro instituti esa sud va boshqa vakolatli organlarning qarorlarini amalga oshirishning samarali mexanizmi sifatida ushbu konstitutsiyaviy huquqni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar ham undiruvni qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratish institutini tartibga solishning huquqiy asoslaridan hisoblanadi.

Xususan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da har bir inson konstitutsiya yoki qonun bilan unga berilgan asosiy huquqlari buzilganda vakolatli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Qarzdorning mulkini aniqlash, uni sotuvga chiqarish va undiruvchining huquqlarini ximoya qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu masalalarning hal etilishi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda qarzdorlik masalalarining ko'payishi, qonunchilikning rivojlanishi, ijtimoiy ta'sir, iqtisodiy omillar, shuningdek, huquqiy va axloqiy jihatlari asosiy omillar hisoblanadi.

Xususan, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida jismoniy shaxslarning qarzdorlik darajasining oshishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda qarzdorlarning

shaxsiy mol-mulklariga taqiq qo'yish va ularni sotuvga chiqarish jarayonlarining ko'payishi tabiiy hol hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy jihatdan ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, qarzdorning ehtiyoji uchun yagona mulkini sotuvga chiqarish uni va uning oilasini ijtimoiy qiyinchilikka duchor qilishi mumkin. Shu sababli, bu masalaning ijtimoiy jihatlarini hal etish zarur.

Har bir davlatda qarzdorlik masalalariga oid qonunchilik doimiy rivojlanib bormoqda. Qarzdorlarning huquqlari va manfaatlarini ximoya qilish, shu bilan birga undiruvchilarning to'lovlarni olishlarini ta'minlash maqsadida yangi me'yorlar va tartiblar joriy etish lozim.

Mol-mulkarni sotuvga chiqarish orqali undiruvchilar o'z manfaatlarini ximoya qilmoqda. Biroq, bu jarayonda mol-mulkning xaqiqiy qiymatini aniqlash, sotuvning to'g'ri tashkil etilishi kabi muammolar mavjud.

Shuningdek, qarzdorlarning huquqlarini ximoya qilish va undiruvchilarning manfaatlarini ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni saqlash, bu masalani hal etishda huquqiy va axloqiy jihatlarini hisobga olish lozim.

Undiruvni qarzdorning mol-mulalariga qaratish jihatlarini rus olimlaridan E.G.Nataxina atroflicha o'rgangan, K.Malishev, I.B.Morozova, Yu.Grinko, S.Bratus, E.Suxanov, V.Vitryanskiy, A.V.Malko kabi olimlar tadqiq qilgan.

Biroq, O'zbekistonda qarzdor jismoniy shaxslarning shaxsiy mol-mulkiga qaratish masalalari keng tadqiq etilmagan va amalga oshirish mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan.

Shaxsiy mol-mulkni himoya qilish nafaqat fuqarolarning mulk huquqini saqlash, balki ularga nisbatan qonunsiz yoki noqonuniy aralashishlardan, xususan, davlat yoki uchinchi shaxslar tomonidan keladigan xatti-harakatlardan qonuniy yo'llar bilan himoya qilishni ham o'z ichiga oladi.

Har bir fuqaro mol-mulkini qonuniy ravishda foydalanishi va ishlatishi mumkin. Bu shaxsiy mulkka tegishli huquqlarning buzilishini, unga noqonuniy tajovuzni yoki mol-mulkni tartibsiz ravishda olib qo'yishni taqiqlaydi.

Davlat ijrochilari shaxsiy mol-mulkni himoya qilishda ayrim hollarda qonunga asosan mol-mulkka qaratish yoki undirish jarayonini amalga oshirishadi. Ijro hujjatlari orqali mol-mulkni undirishda shaxsiy mulkni tartibsiz yoki noqonuniy ravishda olib qo'yish ham shaxsiy mol-mulkka tajovuz hisoblanadi.

Bu holatda shaxsiy mulk egasi o'z mulkini qonunga zid usullar bilan yo'qotishidan himoyalanihlari ham mumkin.

Majburiy ijro harakatlari tizimida undiruvni qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratish markaziy o'rinni egallaydi.

Bu ijro harakati quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Qarzdor tomonidan ijro hujjatida ko'rsatilgan majburiyatning ixtiyoriy ijro etilmasligi;
2. Undiruvni qarzdorning ish haqi va boshqa daromadlariga qaratish orqali undiruvchining talablarini to'liq qanoatlantirish imkonining yo'qligi;
3. Qarzdorning shaxsiy mol-mulki mavjudligi sabab bo'ladi.

Olimlarning fikricha "undiruvni qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratish – bu undiruvchining talablarini qanoatlantirishning eng samarali usuli hisoblanadi." Chunki bu usul orqali qisqa muddatda undiruvchining talablari to'liq qondirilishi mumkin.

Undiruvni qarzdor jismoniy shaxslarning shaxsiy mol-mulkiga qaratishning o'ziga xos xususiyatlari qo'yidigilar bo'lib, qarzdorning mol-mulkini aniqlash, xatlash, baholash va sotishdan iboratdir.

Hozirda bu jarayonlarni amalga oshirishda dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ko'pincha qarzdorlar o'z mol-mulklarini yashirishi yoki boshqa shaxslarga o'tkazib yuborishi orqali undiruvdan qochishga harakat qilishadi. Bu esa, mol-mulkni aniqlash va ro'yxatga olish jarayonini murakkablashtiradi. Amaliyotda qarzdorlar o'zlariga tegishli mol-mulkni rasmiy ravishda oila a'zolari yoki ishonchli shaxslarga o'tkazib, o'z nomlaridan chiqarib, yangi sotib olingan mol-mulkni boshqalarning nomiga rasmiylashtirib, o'zlari undan foydalanishda davom etishi, mol-mulkni yashirish yoki uning mavjudligini inkor etish orqali undiruvdan qochishga harakat qilishlari ko'p uchramoqda.

Baholashda ochiq ma'lumotlarning yetishmasligi yoki noto'g'ri qo'llanilishi mol-mulkning real qiymatini aniqlashga to'sqinlik qiladi. Ro'yxatga olishda baholash va sotish jarayonlari to'liq elektronlashtirilmaganligi, jarayonning shaffofligi va tezkorligini ta'minlashda muammolar keltirib chiqarmoqda. Bu esa, mol-mulkni aniqlashda davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvi tizimini to'liq rivojlantirish lozimligini anglatadi.

Xatlash jarayonida mol-mulk ro'yxatga olinib, uning tavsifi, holati va taxminiy qiymati ko'rsatiladi.

A.V. Venediktov "Mol-mulklarni xatlash tartibi va ularning huquqiy munosabatlarini tashkil etishda asosiy maqsad — insonlarning moliyaviy va moddiy manfaatlarini himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlashdir" deb ta'kidlagan.

Mol-mulkni xatlashda huquqiy aniqlikda bu boradagi normalar mol-mulkni xatlash tartibi, unga oid huquqlar va majburiyatlar aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Undiruvni qarzdorning shaxsiy mulkiga qaratish jarayoni boshlangani bilan davlat ijrochisi va qarzdor o'rtasida huquqiy munosabatlar shakllanadi.

Bu jarayonda mol-mulk haqiqiy egasiga tegishli bo'lmasa, davlat ijrochilariga nisbatan qarshilik yoki tajovuzlarlar bo'lishi mumkin. Amaliyotda banday holatlarda qarzdor jismoniy

shaxsning ijro hujjatida ko'rsatilgan yoki mol-mulki turgan joyga borilganda qarshiliklar ko'plab uchrab turadi.

Misol uchun, xatlov jarayonida qarzdorning yashash manzili yoki ro'yxatda turgan manzilida joylashgan mol-mulkini aniq egasi ko'rsatilmasligi va yashirish holatlari kuzatilganligi sababli, davlat ijrochisiga qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bu esa, ijro jarayonining to'xtatilishi yoki kechiktirilishiga sabab bo'ladi.

Qarzdorning shaxsiy mol-mulkini baholash bozor qiymatidan kelib chiqqan holda davlat ijrochisi tomonidan baholanadi. Bunda, qarzdorning mol-mulkini undiruv jarayonida davlat ijrochisi mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun baholash tashkilotini jalb qiladi. Alohida mol-mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan, umumiy qiymati esa 100 baravaridan oshmagan taqdirda, davlat ijrochisi baholovchi tashkilotni jalb qilmasdan, mustaqil ravishda mol-mulkning shartnomaviy narxini belgilashi mumkin, avtomototransport vositalari bundan mustasno.

Davlat ijrochisi mol-mulkning bozor qiymatini aniqlashda baholash tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi yoki qonunchilikda belgilangan shartlarga muvofiq mustaqil baholash o'tkazadi. Amaliyotda qarzdorning mol-mulki davlat ijrochisi tomonidan baholovchi tashkilot ishtirokisiz baholanganida, korrupsion holatlarga sabab bo'lishi yoki tomonlarning noroziligiga olib kelishi mumkin. Masalan, qarzdordan olib qo'yilgan zamonaviy mebellar, katta ekranli televizorlar, yangi modeldagi telefonlar va maishiy texnikalar odatda bozor konyunkturasiga asoslangan holda baholanishi kerak. Baholash bozor ma'muriyatidan olingan ma'lumotlar, internet manbalari yoki mutaxassis xulosalariga asoslanishi shart. Bu yerda aniqlik talab etilmasdan qarzdorning mulkiy huquqlari to'liq himoya qilinmasdan mol-mulkning bahosi belgilanishi biroz noo'rin.

Xuddi shu kabi, xatlangan mol-mulkni sotishda ham ochiq aksion savdo markazlari ko'p bo'lmaganligi, ularning raqobatchisi mavjud emasligi, undiruvning tezkor amalga oshirilishi kechikishi sabab bo'ladi.

Shu sababli, muammolarni hal qilishda davlat ijrochilarining vakolatlarini kengaytirish orqali bank hisobvaraqlaridagi omonat pul mablag'lari, sug'urta polislari to'g'risida to'liq ma'lumot olish, jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini aniqlash uchun maxsus skanerlar, maxsus elektron tizimlar orqali mustaqil baholash jarayonini avtomatlashtirishni joriy etish, undiruvchi va qarzdorga baholash natijalarini shikoyat qilish imkoniyatini berish, bu jarayonlardagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish uchun tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish zarur.

Chunki, qarzdorning shaxsiy mol-mulkiga qaratishda undiruvning to'g'ri tashkil etilishi ijro jarayonining samaradorligi, adolatliligi va qonuniyligiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Исполнение решений арбитражных судов об имущественных взысканиях: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук: специальность 12.00.03; специальность 12.00.04 / Натахина Елена Геннадиевна; Моск. гос. юрид. акад. - Москва, 1999.
2. Малышев К. Курс гражданского судопроизводства. В2-хт. СПб, 1875, Т.2. С36.
3. Морозова И.Б. Субъекты исполнительного производства: Дис. канд. Юрид. Наук. – М., 1999.
4. Гринько Ю.И. Исполнение судебных решений. Казань Госюриздат. 1969. С6
5. Братусь С.Н. Юридическая ответственность и законность М.1976 С46
6. Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. — М., 1991. -С97.
7. Витрянский В.В. Научно-практический комментарий (постатейный) к Федеральному закону «О несостоятельности (банкротстве)», 2003.
8. Малько А.В. Конституционное право и действия исполнительной власти. М.: Норма, 2018. – С. 14.
9. Отахонов Ф.Ҳ. Ижро иши юритувида мажбурий ижро этиш механизмлари // Ҳуқуқ ва бурч. - 2017. - №4.
10. Alley-science.ru. Теория и практика права собственности. «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №12(75) 2022.